



Cultural compatibility of translated statements: pragmatic adaptation to target cultures

Ramiza JUMAMURATOVA¹

Berdakh Karakalpak State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received October 2025

Received in revised form

15 October 2025

Accepted 15 November 2025

Available online

05 Desember 2025

Keywords:

translation,
pragmatic adaptation,
language culture,
illocutionary force,
discourse markers,
cultural realia,
Uzbek language,
Karakalpak language,
Russian language,
English language.

ABSTRACT

This article provides an in-depth analysis of the cultural appropriateness and pragmatic adaptation of translated statements from English into Uzbek, Karakalpak, and Russian. The findings indicate that in Uzbek and Karakalpak translations, statements are adjusted through politeness, indirectness, and respect categories, whereas in Russian translations, the direct tone of the English statements is largely preserved. Furthermore, the article examines the transformation of illocutionary force, discourse markers, and cultural realia, the adaptation to cultural context, and strategies that determine translation quality. The study confirms the theoretical and practical importance of ensuring pragmatic-cultural equivalence in translation processes.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss6-pp52-57>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Tarjima qilingan bayonotning til madaniyatiga mosligi: tarjima qilingan madaniyatlarga pragmatik moslashish

Kalit so'zlar:

tarjima,
pragmatik moslashish,
til madaniyati,
illokutiv kuch,
diskurs markerlari,
madaniy realiyalar,
o'zbek tili,
qoraqalpoq tili,
rus tili,
ingliz tili.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola ingliz tilidan o'zbek, qoraqalpoq va rus tillariga qilingan tarjimalarda bayonotning til madaniyatiga mosligini va pragmatik moslashish jarayonlarini chuqur tahlil qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'zbek va qoraqalpoq tarjimalarida bayonot yumshoqlik, bilvositalik va hurmat kategoriyasi orqali moslashtiriladi, rus tarjimalarida esa inglizcha bayonotning bevosita ohangi saqlanadi. Shuningdek, maqolada illokutiv kuch, diskurs markerlari va madaniy realiyalarning tarjimada transformatsiyasi, madaniy kontekstga moslashishi, hamda tarjimaning sifatini belgilovchi strategiyalar

¹ PhD, Associate Professor, Berdakh Karakalpak State University. E-mail: ramizajumamuratovaazamat@mail.ru

keng tahlil qilinadi. Tadqiqot nazariy va amaliy jihatdan tarjima jarayonida pragmatik-madaniy ekvivalentlikni ta'minlash zarurligini tasdiqlaydi.

Соответствие переведенного высказывания языковой культуре: прагматическая адаптация к культурам перевода

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

перевод,
прагматическая
адаптация,
языковая культура,
иллокутивная сила,
дискурсивные маркеры,
культурные реалии,
узбекский язык,
каракалпакский язык,
русский язык,
английский язык.

В статье подробно анализируется соответствие переведённых высказываний культурным нормам и процессы прагматической адаптации в переводах с английского на узбекский, каракалпакский и русский языки. Результаты показывают, что в узбекских и каракалпакских переводах высказывания претерпевают адаптацию посредством смягчения, косвенности и выражения вежливости, тогда как в русских переводах прямой тон английского оригинала в основном сохраняется. Кроме того, рассматриваются трансформация иллокутивной силы, изменение дискурсивных маркёров и адаптация культурных реалий к целевому контексту, а также стратегии, определяющие качество перевода. Исследование подтверждает теоретическую и прикладную необходимость обеспечения прагматико-культурной эквивалентности в процессе перевода.

KIRISH

Global kommunikatsiya jarayonining keskin rivojlanishi natijasida tillararo tarjimaning nafaqat lingvistik, balki pragmatik va madaniy jihatlari ham ilmiy tadqiqotlarning markaziga aylandi. Chunki har bir matn yoki bayonot o'zida faqat ma'lum bir mazmunni emas, balki u bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy kontekst, madaniy qadriyatlar, nutq odobi, kutilgan pragmatik ta'sir kabi omillarni ham mujassamlashtiradi. Shu sababli, tarjima jarayoni mazmunni so'zma-so'z ko'chirishdan iborat oddiy til o'zgarishi emas, aksincha, madaniyatlararo muloqotdagi uzviy moslashuv jarayonidir. Ayniqsa ingliz, o'zbek, qoraqalpoq va rus tillari o'rtasidagi tarjimalarda bunday moslashish ikki baravar muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, tarjima jarayonida har bir tilning ichki tizimi ham o'ziga xos tarzda ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ingliz tilining analitik tuzilishi fikrni sodda, bevosita shaklda ifodalashga moyil bo'lsa, o'zbek va qoraqalpoq tillarining agglutinatив xususiyati murakkab ifodalar, muloyim shakllar, hurmat kategoriyasini faol qo'llashga undaydi. Bundan tashqari, rus tilining sintaktik moslashuvchanligi va tarixiy-madaniy konventsionalari inglizchaga nisbatan ko'proq bevosita, rasmiy tusdagi pragmatik strategiyalarni qo'llashga imkon beradi. Natijada, bir xil inglizcha bayonot uch xil madaniy muhitda uch xil pragmatik rangda namoyon bo'ladi.

Shu sababli, ushbu tadqiqot aynan tarjima jarayonida bayonotning til madaniyatiga mosligi masalasini markazga chiqaradi. Ya'ni, tarjima qilingan matn nafaqat semantik mazmuni, balki til madaniyati qabuli, milliy nutq etiketi, madaniy kodlar, kutilgan

kommunikativ natija bilan ham mos bo'lishi kerak. Aks holda, semantik ekvivalentlik yuzaga kelgani bilan, pragmatik nomutanosiblik tufayli bayonotning haqiqiy ta'siri yo'qolishi mumkin.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda tarjima jarayonining pragmatik jihatlarini chuqur yoritish maqsadida bir nechta ilmiy yondashuvlar uyg'un holda qo'llanildi. Avvalo, qiyosiy-pragmatik tahlil asosiy metod sifatida tanlandi, chunki u ingliz, o'zbek, qoraqalpoq va rus tillari o'rtasidagi pragmatik farqlarni tizimli ravishda solishtirish imkonini beradi [4]. Shuningdek, lingvomadaniy tahlil qo'llanib, har bir tilning milliy madaniyatga xos nutq etiketi, xushmuomalalik darajasi, bevositalik va bilvositalik kabi pragmatik xususiyatlari aniqlab borildi [5, 17-47].

Bundan tashqari, tadqiqot jarayonida kontekstual tahlil usulidan ham foydalanildi. Chunki har qanday bayonotning to'g'ri talqini uning yuzaga kelgan vaziyat, muloqot ishtirokchilari, ijtimoiy masofa, rasmiylik darajasi kabi omillar bilan bevosita bog'liqdir. Shu bois, ingliz tilidagi asl matnlar hamda ularning o'zbek, qoraqalpoq va rus tillariga qilingan tarjimalari mos kontekstlarda ko'rib chiqildi. Bu esa, bir tomondan, pragmatik niyatning qanday o'zgarishini aniqlashga yordam bergan bo'lsa, ikkinchi tomondan, tarjimon tomonidan qo'llangan strategiyalarni to'liq baholash imkonini yaratdi.

Shu bilan birga, tadqiqotda tarjima transformatsiyalari nazariyasidan keng foydalanildi. Chunki pragmatik moslashish jarayonida ko'plab transformatsiyalar – masalan, yumshatish (mitigation), kuchaytirish (strengthening), bilvositalashtirish (indirectness), madaniy adaptatsiya (cultural adaptation) va diskurs markerlarining o'zgarishi – faol qo'llanadi [7;1] Shu sababli, har bir misol uchun qaysi transformatsiya ishlatilgani, uning pragmatik ta'siri qanday o'zgargani va tarjima matnida qanday madaniy moslik yuzaga kelgani alohida qayd etildi.

Shuningdek, tadqiqot davomida Brownning xushmuomalalik nazariyasi, Leechning pragmatik printsiplari nazariy asos sifatida qo'llanildi. Ushbu nazariyalar asosida har bir tarjimada gapiruvchining maqsadi, ijtimoiy masofa va madaniy kutishlar qay darajada saqlangan yoki o'zgargani tahlil qilindi [2;6].

Bundan tashqari, ma'lumotlarni qayta ishlashda deskriptiv tahlil ham qo'llanib, har bir tilning lingvomadaniy xususiyatlari tizimli ravishda tavsiflab berildi. Natijalarni aniq ifodalash maqsadida ularning qiyosiy jadvali tuzildi, chunki taqqoslash pragmatik farqning qaysi bosqichda va qanday namoyon bo'lishini yaqqol ko'rsatadi.

Umuman olganda, mazkur metodlar birgalikda qo'llangani sababli, tarjima jarayonidagi pragmatik moslashishning murakkab mexanizmlari chuqur tahlil qilindi va natijalar ishonchli ilmiy asosga ega bo'ldi. Shu bilan birga, adabiyotlar sharhi ham tadqiqotning nazariy asosini mustahkamladi va ishlatilgan metodlarni huquqiy, ilmiy jihatdan tasdiqladi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ingliz tilidan o'zbek, qoraqalpoq va rus tillariga qilingan tarjimalarda pragmatik moslashish turlicha yuz beradi va bu ko'plab omillarga bog'liq. Avvalo, tahlil shuni ko'rsatdiki, o'zbek va qoraqalpoq tillarida bayonotning yumshoqlik darajasi, bilvositalik, hurmat kategoriyasi ko'proq aks etadi. Shu bilan birga, rus tiliga qilingan tarjimalarda esa bevositalik va rasmiylik ustuvor bo'lib, inglizcha bayonotning ohangi asosan saqlanadi.

Ingliz tilidagi qisqa, bevosita buyruqlar ko'pincha o'zbek va qoraqalpoq tarjimalarida yumshatiladi. Bu natija shuni ko'rsatadiki, tarjimonlar madaniy kutishlarni hisobga olgan holda bayonotni odob doirasiga moslashtiradi.

Misol:

- English: *"I need you to finish this by today."*
- Uzbek: "Agar iloji bo'lsa, iltimos, bu ishni bugun tugatsangiz".
- Karakalpak: "Ilajı bolsa, bul jumıstı búginge pitkeriwıńız kerek."
- Russian: "Мне нужно, чтобы вы закончили это сегодня."

Shu orqali ko'rinib turibdiki, o'zbek va qoraqalpoq tarjimalarida muloyimlik va hurmat kuchaytiriladi, rus tilida esa pragmatik kuch deyarli asl holicha saqlanadi.

Tarjima jarayonida ingliz tilidagi buyruqlar, iltimoslar va maslahatlar o'zbek va qoraqalpoq tillarida ko'pincha yumshatiladi. Bu esa illokutiv kuchning transformatsiyasi deb ataladi.

Misol:

- English: *"Please submit your report immediately"*.
- Uzbek: "Iltimos, imkoningiz bo'lsa, hisobotingizni tezda topshirsangiz."
- Karakalpak: "Iltimas, esabatıńızdı tezirek tapsırsańız."
- Russian: "Пожалуйста, сдайте свой отчёт немедленно."

Natijalar shuni ko'rsatadiki, o'zbek va qoraqalpoq madaniyatida muloyim so'z birikmalari orqali qattqlik yumshatiladi, shu bilan birga, rus tarjimasi inglizcha bevositalikka yaqin qoladi.

Ingliz tilidagi *well, actually, you know* kabi diskurs markerlari o'zbek va qoraqalpoq tarjimalarida alohida grammatik yoki leksik vositalar bilan ifodalanadi. Bu esa pragmatik moslashishning yana bir ko'rinishi hisoblanadi.

Misol:

- English: *"Well, I think we should reconsider."*
- Uzbek: "Aslida, menimcha, biz bu masalani yana bir bor ko'rib chiqishimiz kerak".
- Karakalpak: "Sonı aytıw kerek, menimshe, biz bul mäseleni qayta qarap shıǵıwımız kerek."
- Russian: "Ну, я думаю, нам стоит пересмотреть этот вопрос."

Shu orqali aniqlanishicha, o'zbek va qoraqalpoq tarjimalarida diskurs markerlari ko'proq izoh va yumshatuvchi funksiyada ishlatiladi, rus tilida esa markerlarning asl ohangi saqlanadi.

Ba'zi inglizcha iboralar madaniy realiyalarni ifodalaydi va ularning to'g'ridan-to'g'ri ekvivalenti mavjud emas. Natijalar shuni ko'rsatdiki, tarjima jarayonida ular madaniy moslashish orqali ifodalanadi.

Misol:

- English: *"He hit the nail on the head."*
- Uzbek: "U aniq va to'g'ri fikr bildirdi".
- Karakalpak: "Ol haqıyqattı aytqanın ayttı."
- Russian: "Он попал в точку."

Bu misollar pragmatik moslashishning nafaqat leksik, balki madaniy aspektini ham aks ettiradi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, ingliz tilidagi neutral tone o'zbek va qoraqalpoq tarjimalarida rasmiyroq va muloyimroq ohang bilan ifodalanadi. Shu bilan birga, rus tilidagi tarjimada ohang asosan asl holicha saqlanadi.

Umuman olganda, tahlil shuni ko'rsatdiki, tarjima jarayonida pragmatik moslashish bir nechta asosiy strategiyalar orqali amalga oshadi:

- muloyimlikni oshirish va qattiqlikni yumshatish;
- diskurs markerlarini kontekstga moslashtirish;
- madaniy realiyalarni o'zgartirish yoki izoh berish;
- illokutiv kuchni mos ravishda o'zgartirish.

Shu bilan birga, natijalar ko'rsatadiki, pragmatik moslashish faqat leksik yoki sintaktik transformatsiyalar bilan cheklanmaydi, balki madaniy, ijtimoiy va kommunikativ faktorlar bilan uzviy bog'liqdir.

MUHOKAMA

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, tarjima jarayonida bayonotning pragmatik moslashishi bir necha omillar bilan belgilanadi. Avvalo, o'zbek va qoraqalpoq madaniyatlarida yumshatish, bilvositalik va hurmat kategoriyasi ustuvor ahamiyatga ega bo'lib, bu bayonotning tinglovchi tomonidan ijobiy qabul qilinishini ta'minlaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, tarjimon faqat so'zma-so'z ekvivalentlikka e'tibor qaratmasligi, balki madaniy va pragmatik kutishlarni hisobga olishi zarur.

Bundan tashqari, rus tilida inglizcha bayonotning pragmatik ohangi nisbatan saqlanadi, chunki rus kommunikativ madaniyati bevosita ifodaga nisbatan tolerantidir. Shu bilan birga, rus tarjimalarida bayonotning rasmiylik darajasi ham asosan saqlanadi. Bu holat shuni ko'rsatadiki, tarjima jarayonida madaniy va lingvistik konvensiyalar bevosita pragmatik moslashishga ta'sir qiladi.

Muhokama shuni ham ko'rsatadiki, pragmatik moslashish jarayonida illokutiv kuchning transformatsiyasi eng ko'p uchraydigan hodisa hisoblanadi. Masalan, inglizcha buyruqlar va iltimoslar o'zbek va qoraqalpoq tarjimalarida muloyimroq, yumshoqroq shaklda ifodalanadi, natijada bayonotning kommunikativ samarasi oshadi. Shu bilan birga, diskurs markerlarining kontekstga moslashuvi ham tinglovchiga ma'lumotni silliq va tushunarli tarzda yetkazishga xizmat qiladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, madaniy realiyalarning tarjimadagi adaptatsiyasi ham pragmatik moslashishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ba'zi inglizcha iboralar, masalan, *"hit the nail on the head"*, to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinmaydi, balki madaniy kontekstga moslashtirilgan ekvivalentlar orqali ifodalanadi. Shu orqali tarjima qilingan matn o'zbek va qoraqalpoq madaniyatida tinglovchiga tabiiy va tushunarli bo'lib ko'rinadi.

Bundan tashqari, natijalar shuni ko'rsatdiki, pragmatik moslashish faqat til darajasidagi transformatsiyalar bilan cheklanmaydi. Aksincha, u ijtimoiy masofa, nutq etiketi, madaniy kutishlar va kommunikativ niyat kabi faktorlar bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli tarjimonlar uchun asosiy vazifa – bayonotning nafaqat semantik mazmunini, balki uning pragmatik va madaniy funksiyasini ham saqlashdir.

Umuman olganda, ushbu tadqiqot pragmatik moslashish hodisasi tarjimaning sifatini belgilovchi eng muhim omil ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, tahlil shuni tasdiqladiki, lingvistik ekvivalentlik va pragmatik-madaniy ekvivalentlik o'rtasida farq mavjud va tarjimonlar bu farqni hisobga olgan holda ish yuritishi zarur. Shu yo'l bilan bayonotning asl ma'nosi, tinglovchiga yetkazilishi va kommunikativ samarasi maksimal darajada saqlanadi.

XULOSA

Ushbu tadqiqot natijalari ingliz tilidan o'zbek, qoraqalpoq va rus tillariga qilingan tarjimalarda bayonotning pragmatik moslashishi til madaniyati va kommunikativ kontekstga bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, tarjima

jarayoni faqat leksik va grammatik ekvivalentlik bilan cheklanmaydi, balki madaniy va pragmatik ekvivalentlikni ham ta'minlashi kerak. Tahlil shuni ko'rsatdiki, o'zbek va qoraqalpoq tarjimalarida bayonotlar yumshoqlik, muloyimlik, bilvositalik va hurmat kategoriyasi orqali tinglovchiga moslashtiriladi. Shu bilan birga, rus tiliga qilingan tarjimalarda inglizcha bayonotning bevosita ohangi asosan saqlanadi, bu esa rus madaniyatida bevositalik va rasmiylikning qabul qilinishiga bog'liq. Umuman olganda, ushbu tadqiqot pragmatik moslashish hodisasi tarjimaning sifatini belgilovchi eng muhim omil ekanini ko'rsatadi va tarjimonlar uchun lingvistik ekvivalentlikdan ko'ra pragmatik-madaniy ekvivalentlikni ta'minlash zarurligini ilmiy asos bilan tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Baker, M. (2018). In other words: A coursebook on translation. Routledge.
2. Brown, P. (1987). Politeness: Some universals in language usage (Vol. 4). Cambridge university press.
3. Esemuratova, R., Kalendarova, M., Japaqova, R.: Qaraqalpaq tiliniń túsindirme sózligi. Qaraqalpaqstan baspası. Nókis (1982)
4. Hatim, B., & Mason, I. (1997). The translator as communicator. Routledge.
5. Katan, D. (2018). Defining culture, defining translation. In The Routledge handbook of translation and culture (pp. 17-47). Routledge.
6. Leech, G. N. (2014). The pragmatics of politeness. Oxford University Press.
7. Newmark, P. (1988). A textbook of translation (Vol. 66, pp. 1-312). New York: Prentice hall.
8. Hakimovna, A. S. (2025). O 'ZBEK TILIDA NUTQ MADANIYATI VA STILISTIKA MASALALARI. TADQIQOTLAR, 71(1), 213-217.
9. Toshpo'latov, A. M. (2025). O 'ZBEK TILI MULOQOTIDA PRAGMATIK VAHONING O 'RNI. AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING, 3(6), 1188-1192.
10. Исмаилова, Ф. А., & Манцаева, А. Н. (2022). ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ ЭТИКЕТ: РАССМОТРЕНИЕ С ПРАГМАТИЧЕСКОЙ ТОЧКИ ЗРЕНИЯ. ЧЕЧЕНСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА, 7.
11. Мамаджанова, Г. (2024). ЯЗЫК КАК ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРНЫХ КОДОВ. Farg'ona davlat universiteti, (3), 323-323.